


TARMOQ MALAKA RAMKASI

Reyestr raqami:

QR kod



1. Umumiy talablar va asosiy tushunchalar

Ushbu tarmoq malaka ramkasi O'zbekiston Respublikasi Milliy malakalar ramkasi, Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori (MMK-2025) va Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichiga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, iqtisodiyot, moliya va audit tarmog'i bo'yicha sakkizta malaka darajasini tarmoqda qo'llaniladigan bilim, ko'nikma (mahorat), mas'uliyat va mustaqillik xususiyatiga qarab tasniflaydi.

Tarmoq malaka ramkasi iqtisodiyot, moliya va audit tarmog'ida malaka darajalarining yagona shkalasini belgilaydi, malakalarning qiyoslanishini ta'minlaydi, kasbiy standartlar va mutaxassislar malakasining muvofiqligini tasdiqlash hamda ularning malakasini tan olish tizimi uchun asos hisoblanadi.

Iqtisodiyot, moliya va audit yo'nalishi bo'yicha Tarmoq malakalar ramkasining asosiy maqsadi iqtisodiyot, moliya va audit tarmog'ida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yilgan talablarni shakllantirishdan, shuningdek, tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini ko'rsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashdan iborat.

Tarmoq malakalar ramkasining vazifasi keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun iqtisodiyot, moliya va audit tarmog'idagi joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Ushbu tarmoq malaka ramkasida quyidagi asosiy atama va tushunchalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

broker – [ing. broker – vositachi]. Birja xodimi, mahsulotlar, qimmatbaho qog'ozlar, valyutalarning sotuvchi va xaridorlari o'rtasida vositachi rolidagi bozor munosabatlari agenti;

guruh – Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (IFUT (2.1-tahrir) bo'yicha iqtisodiy faoliyatning keng sohasini o'z ichiga olgan faoliyat turi;

iqtisodiy faoliyat turi – savdo uchun mo'ljallangan mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) maqsadida u yoki bu turdagi resurslarni (uskunalar, mehnat, texnologiya va boshqalar) birlashtirishga asoslangan ishlab chiqarish jarayoni;

ijara – [arab. biror narsani foyda, haq evaziga berish yoki olish]. 1. Egasi tomonidan muayyan haq evaziga boshqa shaxsga vaqtincha foydalanish uchun taqdim etilgan mulk. 2. Talabgor yoki iste'molchi tomonidan muayyan haq evaziga u yoki bu narsaning, moliyaviy mablag'larning olinishi;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

iqtisod – sarf-xarajatda tejamkorlik, tejab qolish, kam sarf-xarajat qilib, ko'proq naf olish, sarf-xarajatlarda tejamkorlik;

iqtisodiy faoliyat – moddiy resurslar, uskunalar, mehnat, texnologiyalar vositasida bir turdagi mahsulotlar (tovarlar yoki xizmatlar) to'plamini hosil bo'lishi jarayoni;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kichik sinf – sinf ichidagi faoliyatning aniq turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

kredit – [lot. creditum – qarz]. Qaytarib berish sharti bilan beriladigan, ko'p holda qarzdor qarzdan foydalanganlik uchun foiz to'laydigan, kreditlovchi tomonidan qarzdorga taqdim etiladigan pul yoki tovar shaklidagi qarz;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

ko'chmas mulk – yer uchastkalari, yer osti boyliklari, binolar, inshootlar, ko'p yillik dov-daraxtlar va yer bilan uzviy bog'langan boshqa mol-mulk, ya'ni belgilangan maqsadiga nomutanosib zarar yetkazmagan holda joyini o'zgartirish mumkin bo'lmaydigan obyektlar;

marketing – [ing. marketing – bozorni ilgari surish, bozor faolligi]. Tovarlarining sotilishini rag'batlantirish, ayirboshlashni rivojlantirish va jadallashtirish, talab-ehtiyojlarni to'laroq qondirish va ko'proq foyda olish maqsadida amalga oshiriladigan tovarlar, xizmatlar, qimmatli qog'ozlar bozori sohasidagi faoliyat;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o'zaro ta'sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

menejer – [ing. manager – ma'mur, boshqaruvchi]. Ishlab chiqarish va tovarlar aylanmasini boshqarish bo'yicha mutaxassis, boshqaruvchi;

moliyaviy lizing – Lizingga oluvchi lizing kompaniyasiga shartnoma amal qilish muddati ichida eskirishning to'liq qiymatiga teng miqdorni va jihozni ishlatishdan olingan foydadan hissani to'laydigan, jihozni qolgan qiymati bo'yicha shartnoma muddati tugagach sotib olish, jihozni qaytarish yoki shartnoma muddatini uzaytirish huquqini oladigan lizing shartnomasi;

norasmiy ta'lim – ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobil shakli;

pul – uning vositasida boshqa barcha tovarlarning qiymati ifodalanadigan universal tovarning umumiy ekvivalent sifatida ishlatiladigan alohida ko'rinishi;

qimmatli qog'oz – hujjatlar bo'lib, ular mazkur hujjatlarni chiqargan yuridik shaxs bilan ularning egasi o'rtasidagi mulkiy huquqlarni yoki qarz munosabatlarini tasdiqlaydi, dividendlar yoki foizlar tarzida daromad to'lashni hamda ushbu hujjatlardan kelib chiqadigan huquqlarni boshqa shaxslarga o'tkazish imkoniyatini nazarda tutadi;

sinf – guruh ichida iqtisodiy faoliyatning o'rtacha darajada (tor doirada) aniqlangan turlarini ifodalovchi faoliyat turi;

sug'urta – muayyan voqea (hodisa) yuz berganda yetkazilgan zararining o'rnini qoplash, tovonlar va boshqa to'lovlar to'lash uchun maqsadli pul jamg'armalarini tashkil etish hamda ulardan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan, jismoniy va yuridik shaxslarning manfaatlarini himoya qilishga doir munosabatlar;

tijorat – savdo va savdo-vositachilik faoliyati, savdoda ishtirok etish yoki tovar hamda xizmatlar sotuviga ko'maklashish jarayoni.

Tarmoq malakalar ramkasini ishlab chiqishda foydalanilgan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar:

O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 3-sentabrdagi "Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida"gi O'RQ-938-XII-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustdagi "Baholash faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-811-I-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi O'RQ-328-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2014-yil 6-maydagi "Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi O'RQ-370-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2015-yil 3-iyundagi "Qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risida"gi O'RQ-387-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 3-yanvardagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi O'RQ-419-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 22-oktabrdagi "Valyutani tartibga solish to'g'risida"gi O'RQ-573-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 5-noyabrdagi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-580-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 25-dekabrdagi "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-598-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 25-fevraldagi "Auditorlik faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-677-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 23-noyabrdagi "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi O'RQ-730-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-martdagi "Davlat mulkini boshqarish to'g'risida"gi O'RQ-821-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi";

O'zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksi";

O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 20-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi";

O'zbekiston Respublikasining 2018-yil 1-apreldagi "O'zbekiston Respublikasining Iqtisodiy protsessual kodeksi";

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 30-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi";

O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 22-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi".

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-oktabrdagi "Kasbiy ta'limda malakali kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish va xalqaro ta'lim dasturlarini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-158-sonli Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-345-sonli Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 17-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini tartibga solishga qaratilgan ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 369-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Davlat moliyaviy nazorati inspeksiyasi hamda vazirliklar va idoralarning ichki audit xizmatlari xodimlari malakasini sertifikatlash tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida" 62-son Qarori;

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2023-yil 24-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligining axborot tizimida

shaxsiy g'azna hisob varaqlarini yuritish qoidalarini tasdiqlash haqida" buyrug'i. (yangi tahriri).

Iqtisodiyot, moliya va audit yo'nalishi bo'yicha tarmoq malaka ramkasining asosiy maqsadi – Iqtisodiyot va moliya tarmog'ida malaka darajalarining tizimlashtirilgan tavsifini, iqtisodiyotning istiqbollari va ustuvor yo'nalishlarini hamda tarmoqning strategik rivojlanishini hisobga olgan holda Milliy malaka ramkasi asosida mavjud malakalarga qo'yilgan talablarni shakllantirishdan, shuningdek, tarmoqlararo kompetensiyalar va turdosh mashg'ulotlar (malakalar) turlarini ko'rsatgan holda kasblar va lavozimlarni malaka darajalari bo'yicha xaritalashdan iborat.

Iqtisodiyot, moliya va audit yo'nalishi bo'yicha tarmoq malaka ramkasining vazifasi – keyinchalik kasbiy standartlarni ishlab chiqish uchun iqtisodiyot, moliya va audit tarmog'idagi joriy va istiqbolli texnologiyalarni hisobga olgan holda ishchilarning funksional xatti-harakatlari, ko'nikmalari, qobiliyatlari va bilimlariga qo'yiladigan talablarni aniqlashdan iborat.

Asosiy qisqartmalar:

TMR – Tarmoq malakalar ramkasi;

IFUT-2.1 – O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg'ulotlarning milliy klassifikatori;

ESG – ekologik, ijtimoiy va boshqaruv (atrof-muhit, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv).

2. Tarmoq malakalar ramkasining pasporti

Iqtisodiyot, moliya va audit sohasi — jamiyatning iqtisodiy jarayonlarini boshqarish, moliyaviy resurslardan samarali foydalanish hamda xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatini nazorat qilishga qaratilgan. Ushbu soha iqtisodiy tahlil, moliyaviy boshqaruv va audit orqali korxonalar barqarorligini ta'minlash hamda ularning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Iqtisodiyot, moliya va audit sohasidagi tarmoq malakalar ramkasi quyidagi iqtisodiy faoliyat turlari uchun ishlab chiqilgan.

Seksiya nomi:

L - seksiyasi Davlat moliyaviy va sug'urta faoliyati;

N - seksiyasi Professional, ilmiy va texnik faoliyat;

P - seksiyasi Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot.

O'zbekiston Respublikasida Iqtisodiyot, moliya va audit sohasidagi TMR Iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (IFUT-2.1) ga muvofiq quyidagi iqtisodiy faoliyat turlarini qamrab oladi:

T/r	Seksiya	Bo'lim	Guruh	Sinf	Kichik sinf
-----	---------	--------	-------	------	-------------

1	L - seksiyasi Davlat moliyaviy va sug'urta faoliyati	64 Sug'urtalash va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar	64.1 Pul- kredit vositachiligi	64.19 Pul-kredit vositachiligining boshqa turlari	64.19.0 Pul-kredit vositachiligining boshqa turlari
			64.9 Sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari	64.92 Kredit berishning boshqa turlari	64.92.0 Kredit berishning boshqa turlari
				64.99 Boshqa toifalarga kiritilmagan, sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari	64.99.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan, sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari xizmatlaridan tashqari moliyaviy xizmatlarning boshqa turlari
		65 Majburiy ijtimoiy sug'urtalashda n tashqari sug'urtalash, qayta sug'urtalash va nafaqa jamg'armalari faoliyati	65.3 Nafaqa jamg'armalari faoliyati	65.30 Nafaqa jamg'armalari faoliyati	65.30.0 Nafaqa jamg'armalari faoliyati
		66 Moliyaviy xizmatlar ko'rsatish va sug'urtalash bo'yicha yordamchi faoliyat	66.1 Sug'urtalash va nafaqa ta'minotidan tashqari moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha yordamchi faoliyat	66.11 Moliyaviy bozorlarni boshqarish	66.11.0 Moliyaviy bozorlarni boshqarish
			66.3 Jamg'armalar ni boshqarish	66.30 Jamg'armalarni boshqarish	66.30.0 Jamg'armalarni boshqarish
		2	N - seksiyasi professiona l, ilmiy va texnik faoliyat	69 Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi faoliyat	69.2 Buxgalteriya hisobi va audit sohasidagi faoliyat; soliq solish bo'yicha
69.20.2 Auditorlik faoliyati					
69.20.3 Soliq solish masalalari bo'yicha					

			maslahat berish		maslahatchilar xizmati
		70 Bosh kompaniyalar faoliyati va boshqarish masalalari bo'yicha maslahat berish	70.1 Bosh kompaniyalar faoliyati	70.10 Bosh kompaniyalar faoliyati	70.10.0 Bosh kompaniyalar faoliyati
3	P - seksiyasi Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	84 Davlat boshqaruvi va mudofaa; majburiy ijtimoiy ta'minot	84.1 Umumiy tushdagi davlat boshqaruvi; ijtimoiy-iqtisodiy boshqaruv;	84.11 Umumiy tushdagi davlat boshqaruvi	84.11.1 Davlat hokimiyati va boshqaruvining respublika idoralari faoliyati
					84.11.2 Davlat hokimiyati va boshqaruvining hududiy idoralari faoliyati
					84.11.3 Mahalliy boshqaruv idoralari faoliyati
					84.11.9 Boshqa toifalarga kiritilmagan davlat xizmatlarini boshqarish
			84.3 Majburiy ijtimoiy ta'minot sohasidagi faoliyat	84.13 Iqtisodiy faoliyatni samarali olib borishga ko'maklashish va boshqarish	84.13.0 Iqtisodiy faoliyatni samarali olib borishga ko'maklashish va boshqarish
				84.30 Majburiy ijtimoiy ta'minot sohasidagi faoliyat	84.30.0 Majburiy ijtimoiy ta'minot sohasidagi faoliyat

TMR quyidagi kasbiy faoliyat turlari va mashg'ulotlar guruhlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

T/r	Mashg'ulot guruhi kodi	Mashg'ulot guruhi nomi
1.	11111	Siyosiy davlat fuqarolik xizmatchilari
2.	11122	Yuqori lavozimli davlat xizmati xizmatchilari
3.	11200	Markaziy tashkilotlar, muassasalar va korxonalarning rahbarlari
4.	12111	Moliyaviy-iqtisodiy faoliyat sohasidagi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari

5.	12112	Ma'muriy faoliyat sohasidagi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari
6.	12130	Strategik rejalashtirish va faoliyatni rivojlantirish sohasidagi tarkibiy bo'linmalar rahbarlari
7.	12210	Savdo va marketing bo'limlari rahbarlari
8.	12221	Axborot va jamoatchilik bilan aloqalar xizmati rahbarlari
9.	13211	Ishlab chiqarish sanoati sohasida ishlab chiqarish va foydalanish bo'limlari rahbarlari
10.	13460	Moliyaviy faoliyat va sug'urta sohasidagi xizmatlar va bo'limlar rahbarlari
11.	13490	Boshqa mashg'ulot guruhlarga kiritilmagan ixtisoslashtirilgan xizmat ko'rsatish sohasidagi rahbarlar, b.g.k.
12.	14390	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan boshqa soha xizmatlari rahbarlari, b.g.k.
13.	21201	Aktuariylar
14.	21203	Statistiklar
15.	24111	Auditorlar
16.	24112	Buxgalterlar
17.	24113	Byudjetni rejalashtirish va tahlil qilish bo'yicha professional-mutaxassislar
18.	24121	Moliya va investitsiya masalalari bo'yicha professional-mutaxassislar
19.	24122	Korporativ mijozlar bilan ishlash bo'yicha professional-mutaxassislar
20.	24131	Moliyaviy tahlilchilar
21.	24132	Barqaror moliya va yashil investitsiyalar tahlilchilari
22.	24136	Sug'urta sohasidagi professional-mutaxassislar
23.	24139	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan moliyaviy tahlilchilar, b.g.k.
24.	24222	Davlat siyosatini rejalashtirish bo'yicha professional-mutaxassislar
25.	24223	Xalqaro aloqalar bo'yicha professional-mutaxassislar
26.	24311	Marketing va bozor tadqiqotlari bo'yicha tahlilchilar
27.	24334	Boshqa ixtisoslashgan mahsulotlarni sotish bo'yicha professional mutaxassislar, b.g.k
28.	26111	Yuristlar
29.	26199	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga huquq sohasidagi professional-mutaxassislar, b.g.k.
30.	26311	Iqtisodchilar (umumiy)ga
31.	33111	Qimmatli qog'ozlar va moliyaviy vositalar bilan savdo qiluvchi diler/broker
32.	33112	Moliyaviy derivativlar bilan ishlovchi diler/broker
33.	33130	Buxgalteriya hisobi bo'yicha yordamchi xodimlar
34.	33151	Baholovchilar
35.	33152	Sug'urtani baholash bo'yicha mutaxassislar
36.	33210	Sug'urta agentlari
37.	33231	Xaridlar bo'yicha agentlar
38.	33510	Bojxona va chegara xizmati organlari xizmatlari inspektorlari
39.	42119	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan bank kassirlari va turdosh sohalar xodimlari, b.g.k.
40.	43111	Buxgalteriya operatsiyalari va hisobi bo'yicha xodimlar
41.	43112	Audit bo'yicha xodimlar

42.	43129	Boshqa mashg'ulotlar guruhlariga kiritilmagan statistik, moliyaviy va sug'urta ma'lumotlarini qayta ishlash va hisoblash xodimlari, b.g.k.
43.	43130	Ish vaqti va ish haqi hisobi bo'yicha xizmatchilar
44.	43211	Omborlarda moddiy boyliklarni hisobga olish, qabul qilish va berish bilan band bo'lgan xodimlar
45.	51510	Xo'jalik ishlarini yuritish bo'yicha yordamchilar va ekonomikalar

3. Tarmoq tahlili

O'zbekistonda 2025-yilda inflyatsiya 7,3 foizni tashkil etib, o'tgan yilga (9,8 foiz) nisbatan pasaydi. Inflyatsiya omilining REER indeksiga ta'siri 1,5 bandni tashkil etdi.

2026-yilda bu ko'rsatkich 2025-yil ko'rsatkichlaridan oshib ketmasligi bo'yicha rejalar asosida tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2017-yildan buyon iqtisodiyotga barcha manbalar hisobidan 188 milliard dollar investitsiya kiritilgan. Shundan 87 milliard dollari chetdan jalb qilingan. Natijada investitsiyalarning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 30 foizdan oshib, barqaror iqtisodiy o'sishga zamin bo'lmoqda.

2025-yilda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan jami investitsiyalar hajmi keskin oshib, 43,1 milliard AQSh dollarini (yoki 591,1 trillion so'mdan ortiq asosiy kapitalga) tashkil etdi, bu esa avvalgi yilga nisbatan sezilarli o'sishni ko'rsatadi. Asosiy xorijiy investitsiyalar hajmi esa 33,5 milliard dollarga yetdi.

Fintex sohasida blokcheyn texnologiyalari, sun'iy intellekt (AI) va katta ma'lumotlar (Big Data) asosidagi analitik platformalarning joriy etilishi. Masalan, moliyaviy operatsiyalarni avtomatlashtirish uchun AI-asoslangan chat-botlar va tranzaksiyalar xavfsizligini ta'minlash uchun blokcheyn tizimlari kengaymoqda. Buxgalteriya va auditda "1C Buxgalteriya", SAP ERP va Oracle NetSuite kabi zamonaviy ERP tizimlarining qo'llanilishi kuchaymoqda. Davlat xaridlari va moliya boshqaruvida elektron platformalar (masalan, O'zDavXarid) orqali shaffoflik va samaradorlik oshirilmoqda.

Xalqaro moliya institutlari (XMF, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki) bilan hamkorlikda O'zbekistonda moliya bozorini rivojlantirish va investitsiyaviy loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, 2025-2027-yillarda Jahon banki tomonidan malaka oshirish va moliya boshqaruvini yaxshilash uchun \$500 mln. ajratilishi rejalashtirilgan. ACCA, CFA va IFRS kabi xalqaro standartlar asosida ta'lim va sertifikatlashtirish dasturini kengaytirish orqali O'zbekiston mutaxassislarining global bozorda raqobatbardoshligi oshirilmoqda. O'zbekistonning EKSP-2030 va boshqa xalqaro tadbirlarda ishtirok etishi orqali moliya va iqtisodiyot sohasidagi tajriba almashinuvi kuchaymoqda.

2030-yilgacha O'zbekiston eksportini \$45 mlrd. ga yetkazish maqsadi doirasida moliya va iqtisodiyot sohasida yangi investitsiyaviy loyihalar (masalan, "Yangi O'zbekiston" dasturi) jadallashmoqda. Moliya bozorida qimmatli qog'ozlar va obligatsiyalar bozorini rivojlantirish, shuningdek, xususiylashtirish jarayonlari

orqali xususiy sektorning ulushi oshirilmoqda. ESG (ekologik, ijtimoiy va boshqaruv) me'yorlari asosida "yashil" moliyalashtirish va ustuvor rivojlanish loyihalariga e'tibor kuchaymoqda, bu esa 2025-2030-yillarda \$2 mlrd. ga yaqin "yashil" investitsiyalarni jalb qilishni ko'zda tutadi.

Bundan tashqari kelgusi 2026-yil 43 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish ko'zda tutilmoqda. Bu orqali 300 dan ortiq yirik loyiha bajarilishi, import o'rnini bosuvchi 662 ta yangi mahsulot ishlab chiqarilishi kutilmoqda. 2030-yilgacha mamlakatimizning yillik eksport hajmini 2 barobar oshirib, 45 milliard dollarga olib chiqish maqsadi belgilangan. Bu rejadagi investitsiyaviy loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirib, yuqori qiymatli mahsulot va xizmatlarni ko'paytirishni, eksport geografiyasini kengaytirishni talab etadi.

Yuqori talabdagi kasblar:

Moliyaviy tahlilchi (24131002) – Moliya bozorining rivojlanishi va investitsiyaviy loyihalarning ko'payishi sababli talab 2025-2026-yillarda 20% ga oshadi.

Auditor (24111001) – Korporativ boshqaruv va moliyaviy shaffoflikka bo'lgan talab ortishi bilan auditorlarga ehtiyoj 15% ga ko'payadi.

Fintex mutaxassisi (MMK-2025da mavjud emas) – Elektron to'lov tizimlari, kraudfanding va blokcheyn texnologiyalariga bo'lgan ehtiyoj ortishi munosabati bilan talab yuqori.

ESG moliyaviy tahlilchisi (MMK-2025da mavjud emas) – "Yashil" moliyalashtirish va ustuvor rivojlanish loyihalariga bo'lgan ehtiyoj sababli talab 2025-2030-yillarda 25% ga oshadi.

Past talabdagi kasblar:

Buxgalter-kassir (33130004) – Avtomatlashtirilgan tizimlar va elektron to'lov platformalarining rivojlanishi sababli talab 10% ga kamayadi.

Xaridlarni tashkil etish bo'yicha mutaxassis (33231007) – Elektron xarid platformalarining kengayishi bilan talab 5% ga pasayadi.

Yangi kasblar (MMK-2025 ga kirmagan):

Kriptoalyuta va blokcheyn mutaxassisi Kriptoalyuta bozorining rivojlanishi va blokcheyn texnologiyalarining moliya sohasida qo'llanishiga ehtiyoj ortmoqda.

Sun'iy intellekt asosidagi moliyaviy modellashtiruvchi – AI asosida moliyaviy prognozlar va xavflarni baholash uchun mutaxassislarga talab kuchaymoqda.

Kiberxavfsizlik moliyaviy mutaxassisi – Moliyaviy tizimlarni kiberhujumlardan himoya qilish uchun mutaxassislarga ehtiyoj ortmoqda.

Moliya va iqtisod sohasida kadrlar tayyorlash" mavzusi – juda dolzarb va muhim masala hisoblanadi. Bu sohada yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash mamlakat iqtisodiy taraqqiyoti, moliyaviy barqarorligi va tashqi iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Quyida ushbu sohada kadrlar tayyorlashning asosiy yo'nalishlari va vazifalari keltirilgan:

Makroiqtisod, mikroiqtisod, moliya, bank ishi, soliq va byudjet tizimlari, xalqaro iqtisodiy munosabatlar kabi fanlarni chuqur o'rgatish.

Iqtisodiy tahlil, moliyaviy rejalashtirish, xarajatlarni baholash kabi amaliy ko'nikmalarni shakllantirish.

Talabalarni banklar, moliya muassasalari, soliq organlari, investitsiya kompaniyalari va xalqaro tashkilotlarda amaliyot o'tashlarini ta'minlash.

Keys tadqiqotlar, simulyatsiya o'yinlari va amaliy treninglar tashkil qilish.

1C Buxgalteriya, Excel, SPSS, MATLAB, Python kabi dasturlar orqali moliyaviy tahlil va iqtisodiy modellashni o'rgatish.

Onlayn kurslar, vebinarlar, masofaviy ta'lim platformalarini joriy etish.

Xalqaro hamkor universitetlar bilan qo'shma dasturlar va akademik almashinuvlar.

Davlat moliyasi, xususiy sektor moliyasi, investitsiya moliyasi, soliq siyosati, byudjet tahlili kabi yo'nalishlar bo'yicha ixtisoslashuv.

O'zbekistonda iqtisodiyot, moliya va audit sohalarida kadrlar tayyorlash asosan Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU), Toshkent moliya instituti (TMI) va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU) kabi oliy ta'lim muassasalari orqali amalga oshiriladi. Ushbu muassasalarda bakalavriat va magistratura darajalarida 10 000 ga yaqin talaba ta'lim olmoqda, ularning 70% i moliya va iqtisodiyot yo'nalishlariga ixtisoslashgan.

Kasbiy ta'lim muassasalari, xususan, Toshkent moliya va iqtisodiyot kasb-hunar kolleji va Samarqand iqtisodiyot kasb-hunar kolleji, o'rta maxsus ta'lim darajasida buxgalterlar, moliyaviy tahlilchilar va kassirlar tayyorlaydi. 2024-yilda ushbu kollejlarda 2000 ga yaqin bitiruvchi chiqardi.

Malaka oshirish markazlari, masalan, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Moliya organlari xodimlarini qayta tayyorlash markazi, yiliga 5000 ga yaqin mutaxassisni qayta tayyorlaydi.

Moliya va iqtisodiyot sohasida kadrlar tayyorlaydigan O'zbekistondagi asosiy mahalliy oliy ta'lim muassasalari ro'yxati quyida keltirilgan:

Moliya va iqtisodiyot sohasiga ixtisoslashgan OTMLar:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti (TDIU) – Iqtisodiyot, moliya, buxgalteriya, audit, xalqaro iqtisodiy munosabatlar sohalarida yetakchi OTM.

Toshkent moliya instituti (TMI)

Moliya, bank ishi, sug'urta, soliq, bojxona, buxgalteriya va audit sohalarida bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydi.

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti (JIDU)

Xalqaro iqtisodiyot, xalqaro moliya, tashqi iqtisodiy faoliyat sohalarida kadrlar tayyorlaydi.

Ushbu universitetlar xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallaydi va ularning bitiruvchilari moliyaviy markazlarda (London, Nyu-York, Tokio va boshqalar) muvaffaqiyatli faoliyat olib boradi.

1. Harvard University (AQSH)

Yo'nalishlar: Economics, Finance, Business Administration (MBA). Harvard Business School dunyodagi eng nufuzli biznes maktablaridan biri. Bitiruvchilari orasida bankirular, iqtisodchilar, investitsiya analitiklari bor.

2. Massachusetts Institute of Technology (MIT), Sloan School of Management (AQSH). Moliya bo'yicha dunyodagi eng yaxshi dasturlardan biri. Iqtisodiy modellashtirish va moliyaviy muhandislikda yetakchi.

3. London School of Economics and Political Science (LSE) (Buyuk Britaniya). Iqtisodiyot, moliya, xalqaro iqtisodiy munosabatlar bo'yicha ixtisoslashgan. Yevropa moliyaviy markazlari uchun kadrlar tayyorlaydi.

4. University of Oxford – Said Business School (Buyuk Britaniya). MBA, moliya, iqtisodiy siyosat, xalqaro moliya bo'yicha dasturlar. Kuchli ilmiy va amaliy tayyorgarlik.

5. University of Cambridge – Judge Business School (Buyuk Britaniya). Iqtisod va moliya bo'yicha dunyodagi yetakchi tadqiqotlar markazlaridan biri.

6. University of Chicago – Booth School of Business (AQSH). Moliyaviy nazariya va iqtisodiy tahlilda katta tajribaga ega. Nobel mukofoti laureatlari yetishib chiqqan.

7. Stanford University (AQSH)

Biznes va moliya sohasida innovatsion yondashuv. Kremniy vodiysiga yaqinligi sababli startaplar va investitsiya sohasida imkoniyatlar keng.

8. Bocconi University (Italiya). Yevropa miqyosida moliya va iqtisodiyot bo'yicha eng nufuzli universitetlardan biri. Angliya va AQSH universitetlariga nisbatan arzonroq.

9. University of Toronto – Rotman School of Management (Kanada). Moliya, buxgalteriya, investitsiya va boshqaruv bo'yicha yuqori baholangan. Iqtisod va moliya sohasida kadrlar tayyorlashdagi muammolar va yechimlar

A. Asosiy muammolar

1. Ta'lim mazmunining amaliyotdan uzoqligi.

Ko'p hollarda o'quv dasturlari nazariy jihatdan to'yingan, lekin amaliyotga mos emas. Real bozor sharoitida qo'llanadigan moliyaviy instrumentlar, tahlil usullari yetarlicha o'qitilmaydi.

2. O'qituvchilar salohiyati va tajribasining yetarli emasligi.

Ayrim OTMLlarda moliya sohasi bo'yicha zamonaviy bilimga ega mutaxassis-o'qituvchilar yetishmaydi. Ishlab chiqarish va moliya muassasalarida amaliyot o'tab kelgan kadrlar kam.

3. Xalqaro standartlardan chetda qolish.

Aksariyat ta'lim dasturlari xalqaro malaka tizimlari (ACCA, CFA, IFRS) talablariga moslashtirilmagan. Talabalar xalqaro sertifikatlar olishga tayyorlanmaydi.

4. Ingliz tili va raqamli ko'nikmalarning pastligi.

Jahon moliyasi va iqtisodiyotini o'rganish uchun zarur bo'lgan ingliz tili va IT ko'nikmalari ko'p hollarda yetarli emas.

5. Ish beruvchi va ta'lim muassasasi o'rtasidagi uzviy aloqaning yo'qligi.

OTMLar ish beruvchilar talablarini to'liq hisobga olmaydi.

